

"O'zkimyosanoat" AJ va "Dehqonobod kaliy zavodi" AJlarining rasmiy bayonoti

// 11.05.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-dehqonobod-kaliy-zavodi-ajlarning-rasmiy-bayonoti>



Ijtimoiy tarmoqlarda "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ tashqi hududida mahsulot yuklash uchun kelgan avtotransport vositalari haydovchilariga yetarli darajada qulaylik yaratilmaganligi bo'yicha murojaat tarqaldi. Mazkur holat yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz.

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ hududida yuk tashuvchi transportlarga yuk ortish jarayonida ularni yuk ortishga tayyorlash, yuklash, yuk tashish xujjatlarini o'z vaqtida rasmiylashtirish, umuman olganda, yuk tashuvchi transport vositalarining me'yordan ortiq kutib qolishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida barcha tashkiliy ishlar to'g'ri va tizimli tashkil qilingan.

Shuningdek, yuk avtotransport vositalari haydovchilari uchun zavod hududida ovqatlanish va dam olish uchun maxsus joylar hamda boshqa zarur bo'lgan barcha qulayliklar yaratilgan. Ammo, mahsulotlarni yuklash uchun bir vaqtning o'zida barcha yuk avtotransport vositalarini qabul qilish imkoni bo'lmaganligi tufayli mazkur holat kelib chiqqan.

Hozirda mahsulot yuklash uchun kelgan avtotransport vositalari haydovchilari talab va takliflaridan kelib chiqqan holda, zavodning tashqi hududi hisoblanadigan, yuk avtomashinalari turar joyi yaqinida ham haydovchilarga qulayliklar yaratish maqsadida, zavod qurilishida foydalanilgan binoninig bir qismi ajratilib,

u yerda zarur bo'lgan barcha qulayliklarga ega dam olish va ovqatlanish xonalari hamda boshqa sharoitlar hozirlanmoqda. Ta'mirlash ishlari tez orada yakunlanishi va haydovchilar uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini ma'lum qilamiz.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati